


# **Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirishchora-tadbirlari to'g'risida**



## **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining q a r o r i**

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, eksportni oshirish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Biroq, bugungi kunda tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi, aholi o'sishi hamda boshqa inson ta'siri bilan bog'liq omillar suvni ko'p iste'mol qiladigan ekinlarni yetishtirishga suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Respublikada sholi yetishtirish, saqlash, qayta ishlashning uzlusiz va samarali tizimini takomillashtirish, ichki iste'mol bozorini guruch mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish hamda sholi yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng qo'llash maqsadida:

1.Qishloq xo'jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining sholichilik klasterlari yoki sholi ekishga ruxsat etilgan mintaqalarda sholi yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari bazasida elita urug'chilik xo'jaliklari (keyingi o'rinnarda - **Urug'chilik xo'jaliklari**)ni tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin. Bunda:

**"Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DK** Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda Urug'chilik xo'jaliklarida **avlodli urug'lik ko'paytirish tizimini yo'lga qo'yadi;**

Urug'chilik xo'jaliklari yuqori avlodli urug'liklarni karantin nazoratidan o'tkazilgan **xorijiy kompaniyalardan yoki Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutidan oladi va ko'paytirishni tashkil etadi;**

**sholining elita va avlodli urug'chiliginu yetishtirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda **yer maydonlari ajratiladi**;**

ekilgan urug'lik sholi maydonlari **belgilangan tartibda aprobatsiya ko'riganidan o'tkaziladi va sertifikat olinadi**;

**Urug'chilik xo'jaliklari tomonidan urug'lik sholini tozalash, saralash va qadoqlash ishlari amalga oshiriladi.**

Bosh vazir o'rribosari Sh.M.G'aniyev, Qishloq xo'jaligi vazirligi (J.A.Xodjayev) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda **1-illovaga** muvofiq hududlarda **Urug'chilik xo'jaliklarini** tashkil etish choralarini ko'rsin.

2. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga asosan **2021 yil 1 iyundan boshlab** urug'lik sholiga muvofiqlik sertifikatini berish, belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkazilgan yuridik shaxslar tomonidan ham amalga oshirilishiga ruxsat beriladi.

3. Innovatsion rivojlanish vazirligi, istisno tariqasida, **2021 yil 1 fevraldan boshlab** ilmiy-texnik dasturlar doirasida **sholi seleksiyasi, yetishtirish agrotexnikasi va urug'chilik tizimini rivojlantirish** bilan bog'liq **5 yilgacha maqsadli loyihalar tanlovini e'lon qilsin**. Bunda, seleksiya yo'nalishida amalga oshiriladigan fundamental va amaliy loyihalar avval bajarilgan loyihalarning mantiqiy davomi ekanligi inobatga olinsin va uzlucksiz davom ettirilishi ta'minlansin.

4. Qishloq xo'jaligi vazirligi (J.A.Xodjayev) Suv xo'jaligi vazirligi (Sh.R.Xamrayev) va Fanlar akademiyasi (B.S.Yuldashev) bilan birgalikda:

mintaqalarning tuproq-iqlim sharoitlariga mos sholini almashlab ekish dasturini tuzish va ekin maydonlarining hisobini olib borish hamda **Urug'chilik xo'jaliklarida navbatlab ekish tizimini yo'lga qo'yisin**. Bunda, bir dalada 2 yildan ortiq sholi yetishtirilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha **ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimi** joriy qilinadi;

Xorazm viloyatining tuproq-iqlim sharoitlarini o'rganib, **xorijdan sholining yuqori hosilli navlari urug'larini olib kelish hamda ularni mahalliy sharoitda ko'paytirish bo'yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirsin**. Bunda, ushbu amaliyat tajriba-sinov natijalariga ko'ra respublikaning boshqa hududlariga ham tatbiq etish choralarini ko'riliadi.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining sholi yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarini keng qo'llash maqsadida:

2021 yilda jami sholi maydonlarining kamida **20 foizida** ko'chatlab ekish, kamida **50 foizida lazer uskunasi yordamida** **yer tekislash tizimini** joriy etish, kamida **30 foizida** sholini zamonaviy urug' seyalkalari orqali ekish;

2022 yilda jami sholi maydonlarining kamida **40 foizida** ko'chatlab ekish, kamida **70 foizida lazer uskunasi yordamida** **yer tekislash tizimini** joriy etish, kamida **50 foizida sholini zamonaviy urug'** seyalkalari orqali ekish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

Bosh vazir o'rinnbosari Sh.M.G'aniyev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlari bilan birgalikda **mazkur takliflarni to'liq joriy etish hamda 2023 yildan boshlab yanada kengaytirish choralarini ko'rsin.**

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi (Q.R.Sariyev), Xorazm viloyati hokimligi (F.U.Ermanov) Innovatsion rivojlanish vazirligi (I.Yu.Abduraxmonov), Suv xo'jaligi vazirligi (Sh.R.Xamrayev), Qishloq xo'jaligi vazirligi (J.A.Xodjayev) hamda Fanlar Akademiyasi (B.S.Yuldashev) bilan birgalikda **2021 yil sholi ekish mavsumi davomida, eksperiment tariqasida**, tegishli hududlarda:

**500 hektar**dan maydonda **zovur suvlaridan foydalangan holda** sholi yetishtirishni;

**50 hektar**dan maydonda an'anaviy sug'orish usulini qo'llagan holda, ammo **tunda suv bermaslik usulida** sholi yetishtirishni;

**20 hektar**dan maydonda **yomg'irlatib sug'orish** usulida hamda **20 hektar**dan maydonda **tuproqosti tomchilatib sug'orish** usulida sholi yetishtirishni yo'lga qo'ysin.

Qishloq xo'jaligi vazirligi eksperiment natijalari bo'yicha batafsил hisobotni hamda **2022 yilda mazkur ekish va sug'orish texnologiyalarini keng qo'llash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini** 2021 yil 1 dekabrga qadar Vazirlar Mahkamasiga kirtsin.

7. Belgilansinki, 2021 yil 31 dekabrga qadar sholi yetishtirishda sholini zamonaviy urug' seyalkalari hamda ko'chatlab ekish uskunalarini sotib olgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarga sotib olingan **urug' seyalkalari va ko'chatlab ekish uskunalari** **qiymatining 20 foizigacha Davlat byudjetidan qoplab beriladi**

Qishloq xo'jaligi vazirligi (J.A.Xodjayev) Moliya vazirligi (T.A.Ishmetov) bilan birgalikda **bir oy muddatda** mazkur bandga muvofiq **uskunalar qiyamatining bir qismini qoplash tartibini ishlab chiqsin** va Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

8. Sholi yetishtirish va qayta ishslash maqsadida, xorijdan olib kelinadigan **sholi nav va duragay urug'liliklari, laboratoriya jihoz va uskunalari, zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari va agregatlari, don quritish uskunalari hamda butlovchi qismlari 2023 yil 1 yanvarga qadar belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxtatlarga muvofiq bojxona bojidan ozod qilinsin.**

9. Quyidagilar:

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda **2021 yil hosili uchun sholi yetishtirish proqnoz ko'rsatkichlari 2-illovaga** muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi ilmiy muassasalarda 2021 yil hosili uchun **sholi navlarini joylashtirish va superelita urug'lik sholi yetishtirish hajmlarining proqnoz ko'rsatkichlari 3-illovaga** muvofiq;

**O'zbekistonda sholichilikni rivojlantirish bo'yicha  
2021-2022 yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi** (keyingi o'rnlarda – Dastur) **4-illovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Bosh vazir o'rnbosari Sh.M.G'aniyev, Qishloq xo'jaligi vazirligi (J.A.Xodjayev) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda **mazkur proqnoz ko'rsatkichlarining bajarilishini hamda Dasturning ijrosini ta'minlasin.**

10. Qishloq xo'jaligi vazirligi (J.A.Xodjayev) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.X.Toshqulov) bilan birgalikda:

**bir oy muddatda** Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida **sholichilik yo'nalishida qabul kvotasini oshirish yuzasidan** Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin;

**2021 yil 1 iyunga qadar** Qoraqalpog'iston Respublikasida Toshkent davlat agrar universitetining **Nukus filialini hamda Vietnam agrar universiteti bilan birgalikda** sholichilik yo'nalishida **qo'shma fakultet** tashkil qilish choralarini ko'rsin;

**ikki oy muddatda** dunyoning sholichilikka ixtisoslashgan markazlarida (Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, Filippin va boshqalar) yosh kadrlar va mutaxassislarning xorijiy grantlar asosida **malakasini oshirishga yuborish bo'yicha choralarini belgilasın.**

11. Mazkur qarorda nazarda tutilgan ko'rsatkichlarga o'z vaqtida erishish orqali **oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash**, shuningdek, bu borada **samarali nazorat tizimini o'rnatish** maqsadida:

a) Bosh prokuratura (Sh.J.Raximov), Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (D.F.Raximov):

mazkur qarorning 1 va 2-ilovalariga muvofiq yer maydonlarida sholi ekilishi, uning urug', ko'chat, mineral o'g'it hamda suv bilan ta'minlash tadbirlarini o'z vaqtida **amalga oshirilishini joyiga chiqqan holda o'rganib borsin;**

mazkur qarorning 5-bandida nazarda tutilgan sholi maydonlarida ko'chatlab ekish, lazer uskunasi yordamida yer tekislash hamda sholini zamonaviy urug' seyalkalari orqali ekish **tizimlarini joriy qilinishi ustidan doimiy nazorat o'rnatсин;**

respublika hududlarida **ro'yxatga olinmagan sholi yetishtirish holatlarini aniqlab, ularni qonun hujjalariiga muvofiq rasmiylashtirish choralarini ko'rsin;**

mazkur qaror talablariga qat'iy rioya etilishini hamda uni buzgan **aybdorlarga nisbatan qonun doirasida tegishli choralar ko'rilib sholi ta'minlasin;**

amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **har oy yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borsin.**

b) Qishloq xo'jaligi vazirligi (M.I.Ro'zmetov), Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi (F.K.Umarov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Q.A.Yuldashev) uchuvchisiz uchish qurilmalari yordamida mazkur qarorga muvofiq sholi ekinlarini joylashtirish, navbatlab ekishni tashkil etish, shuningdek, **noqonuniy sholi maydonlarini aniqlashga ko'maklashsin;**

v) Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi (A.D.Vaxabov), Ichki ishlar vazirligi (S.A.Nishanbayev), Suv xo'jaligi vazirligi (Sh.R.Xamrayev) hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi (J.A.Xodjayev) mazkur bandda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishda **har tomonlama ko'maklashsin;**

g) Bosh vazir o'rribbosari Sh.M.G'aniyev:

**ikki hafta muddatda** mazkur qaror doirasida 2021 yil hosili uchun sholi yetishtirish prognoz ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, **qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini kesimida manzilli ro'yxatni tasdiqlasın;**

respublika hududlarida, mazkur qaror talablari bo'yicha sholi yetishtirishni ko'paytirish hamda **urug', mineral o'g'it, suv va boshqa resurslarni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy qilish** choralarini ko'rsin.

12.Xorazm viloyat hokimligi (F.U.Ermanov) **2021 yil 1 iyulga qadar:**

Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti Xorazm filialiga Gurlan tumani Chinobod MMTP hududidagi bo'sh yer maydonida ma'muriy laboratoriya binosini qurish hamda zarur bo'ladigan qishloq xo'jaligi texnikalari, laboratoriya uskunalari bilan ta'minlash **mahalliy byudjet daromadlari rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan amalga oshirilishi choralarini ko'rsin;**

Gurlan tumanidan **200 hektar sug'oriladigan yer maydonlari ajratilishini ta'minlasin.**

13.Qishloq xo'jaligi vazirligi (J.A.Xodjayev):

a) Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutining hisob-kitoblariga asosan **sholi urug'ligini saralash uchun zamonaviy kichik hajmdagi saralash va qadoqlash sexlarini tashkil etish, laboratoriya jihozlari, qishloq xo'jaligi texnika va agregatlari bilan ta'minlash uchun** Jahon bankining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish" loyihasi doirasida **jalb etilgan mablag'laridan ajratilishini ta'minlasin;**

b) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda **ikki oy muddatda:**

superelita, elita va keyingi avlodlarga mansub urug'lik sholi yetishtirish uchun Urug'chilik xo'jaliklarini tanlash tartibini;

qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

14. Mazkur qaror ijrosini har chorakda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini nazorat qilish Bosh vazir o'rribbosari Sh.M.G'aniyev zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga har chorak yakuni bo'yicha axborot kiritib borilsin.

**O'zbekiston Respublikasi**

**Prezidenti**

**Sh.MIRZIYOEV**

*Toshkent shahri,*

*2021 yil 2 fevral*